

**“ISHLAB CHIQILGAN”:**

Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi

Direktor T.F. Shoymardonov

M.O. \_\_\_\_\_ 2022 y.

**“KELISHILGAN”:**

Malaka oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish boshqarmasi Boshqarma boshlig'i

F.T. Esanboboyev

M.O. \_\_\_\_\_ 2022 y.

Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

Direktor Z. Xudoyberdiyev

M.O. \_\_\_\_\_ 2022 y.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi Boshqarma boshlig'i

N. Raxmonov

M.O. \_\_\_\_\_ 2022 y.

**“TASDIQLAYMAN”**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi



\_\_\_\_\_ 2022 y.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**“XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH  
HAMDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH MASALALARI”  
BO'YICHA QISQA MUDDATLI  
MALAKA OSHIRISH KURSINING**

**O'QUV DASTURI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA**  
**TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL**  
**ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**Tuzuvchilar:**

p.f.d., professor O.Jamoliddinova  
p.f.d., (DSc) M.Mirsoliyeva  
p.f.d., (PhD) M.Imnazarov  
mustaqil tadqiqotchi D.Solixo'jayeva

**Taqrizchi:**

p.f.d., prof. N.Egamberdiyeva

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

**I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy ta'limdagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan video selektor yig'ilishi bayoni. 2021 yil 16 iyun. (<https://president.uz/uz/lists/view/4424>)
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentabrda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-sonli Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-sonli Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni.

**III. Maxsus adabiyotlar**

9. Namozov B., Egamberdiyeva N., Mirsoliyeva M. O'qituvchilar tayyorlashda gender yondoshuv masalalari. O'quv qo'llanma. 1-chi nashr.-T.:Mehridaryo, 2019. – 80 b.
10. Axmedov B. O'zbek tilida gender tadqiqi. O'quv qo'llanma. -Andijon, 2012. -184 b.
11. Voronina O.A. Teoretiko-metodolicheskiye osnovi gendernix issledovaniy. Kurs leksiyy. -M.: MSGI, MVSHSEN, MFF, 2001. -13,106 s.
12. Sultonov A. Nomoddiy madaniy meros va gender masalasi. Myriam Heget, 2009.-16 b.

**IV. Internet saytlari**

1. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
2. [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

zo'ra'vonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zRQ-561-son hamda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zRQ-562-son Qonunlari. Ta'limning barcha bo'g'inlarida gender tenglikni ta'minlash masalalari.

### 3-mavzu: Gender va gender tenglik masalalari

Gender va gender tenglikka oid tushunchalarning mazmun-mohiyati. Ijtimoiy-madaniy to'siqlar, gender stereotiplar. Oilada, mahallada, ta'lim muassasalarida, jamoada uchraydigan gender to'siqlar va taqiqlar, ularning kelib chiqish sabablari va omillari. Xotin-qizlarning ta'limiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini amalga oshirishda gender yo'nalganlik masalalari. Ta'lim muassasasining gender strategiyasi.

### 4-mavzu: O'quv jarayonida gender-differensiyalangan xulq-atvorning ta'sirini hisobga olish

Ta'lim mazmuni va o'quv-tarbiya jarayonining gender sezuvchanligi. Gender differensiyalangan xulq-atvor: kognitiv, emosional, faoliyatli komponentlar tahlili. Pedagogik jarayonni loyihalashtirishda gender o'ziga xoslikni e'tiborga olish. Rahbar va pedagog kadrlarning gender kompetentligini rivojlantirish masalalari.

### O'qitishda foydalaniadigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar

O'quv kursi nazariy, amaliy mashg'ulotlari shaklida olib boriladi.

O'qitish jarayonida ta'limning aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyat, bahs-munozara, suhbat, muhokama, debat kabi zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalaniladi.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu dastur asosida masofaviy shaklda tashkil etiladigan ma'ruza darslari masofaviy ta'lim platformasida flipped classroom (ag'darilgan sinflar) usulida tashkil etiladi. YA'ni, bunda ma'ruzachilar tomonidan oldindan vodkastlar (qisqa video ma'ruzalar) taqdim qilinadi va keyin onlayn savol-javoblar bo'lib o'tadi.

Amaliy mashg'ulotlar masofaviy ta'lim platformasida topshiriqlar berish va tinglovchilarning topshiriqlarni bajarishlarini ta'minlashga qaratilgan video konferensiya va chatlarda maslahat shaklida amalga oshiriladi.

Kurs yakunida onlayn test sinovi o'tkaziladi.

## KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentabrda "Xotin-qizlarni ta'lim va zo'ra'vonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zRQ-561-son hamda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zRQ-562-son Qonunlarining ustuvor yo'nalishlari mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy va professional ta'lim muassasalarida hamda akademik litseylar rahbar va pedagog kadrlarining gender kompetentligini rivojlantirish, gender siyosatini amalga oshirilishini ta'minlash masalalariga oid ilg'or xorijiy tajribalar, xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asoslariga oid masalalar yuzasidan bilim va ko'nikmalarni kengaytirish, tasavvurlarni rivojlantirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish masalalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur mazmuni O'zbekistonda gender strategiyasining normativ-huquqiy asoslarini tahlil etish, gender tenglikni ta'minlash, gender muammolarini hal etish, ta'lim muassasasining gender strategiyasini tuzish, o'quv jarayonida gender-differensiyalangan xulq-atvorning ta'sirini hisobga olish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

### Kursning maqsadi va vazifalari

**Kursning maqsadi** – rahbar va pedagog kadrlarni ta'limning barcha bo'g'inlarida gender tenglikni ta'minlashga doir bilimlarini takomillashtirish, xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asoslarini o'zlashtirish, ta'lim muassasasining gender omillarini hisobga oluvchi strategiyasini ishlab chiqish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirish.

### Kursning vazifalari:

- rahbar va pedagog kadrlarning gender kompetentlik asoslari to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish;
- uzluksiz malaka oshirish jarayonlarida gender masalalarini e'tiborga olish;
- ta'limda gender tenglikni amalga oshirish;
- pedagogik jarayonni loyihalashtirishda gender o'ziga xoslikni e'tiborga olish;
- oilada, mahallada, ta'lim muassasalarida, jamoada uchraydigan gender to'siqlar va taqiqlar, ularning kelib chiqish sabablari va omillarini aniqlash, ularni bartaraf etish, genderni o'ziga ma'rufatni oshirishga ko'maklashish.

### Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

#### Tinglovchi:

- gender va gender tenglikka oid tushunchalarning mazmun-mohiyatini;

- O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asoslarini;
- ijtimoiy-madaniy to'siqlar, gender stereotiplarni;
- xotin-qizlarning ta'limiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini amalga oshirishda gender yo'nalganlik masalalarini;
- ta'lim muassasasining gender strategiyasini;
- ta'lim mazmuni va o'quv-tarbiya jarayonining gender sezuvchanligini;
- gender differentsiallangan xulq-atvor: kognitiv, emotsional, faoliyatli komponentlar tahlilini;
- rahbar va pedagog kadrlarning gender kompetentligini rivojlantirish masalalarini *bilishi* kerak.

#### Tinglovchi:

- gender va gender tenglikka oid tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglash;
- gender strategiyasining normativ-huquqiy asoslaridan samarali foydalanish;
- oilada, mahallada, ta'lim muassasalarida, jamoada uchraydigan gender to'siqlar va taqiqlar, ularning kelib chiqish sabablari va omillarini har tomonlama tahlil qilish;
- pedagogik jarayonni loyihalashtirishda gender o'ziga xoslikni e'tiborga olish;
- xotin-qizlarning ta'limiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini amalga oshirishni gender yo'naltirish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

#### Tinglovchi:

- ta'lim muassasasining gender omillarni hisobga oluvchi strategiyasini amalga oshirish;
- o'quv jarayonida gender-defferensiyallangan xulq-atvorning ta'sirini hisobga olish;
- ta'lim mazmuni va o'quv-tarbiya jarayonining gender sezuvchanligini oshirish;
- gender kompetentlikka doir xorijiy va mahalliy tajribalarni umumlashtirish;
- genderga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish strategiyasini ishlab chiqish;
- oilada, mahallada, ta'lim muassasalarida, jamoada uchraydigan gender to'siqlar va taqiqlarni oldini olish *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

#### Tinglovchi:

- pedagogda gender kompetentlik sifatlarini shakllantirish;
- gender tengsizlikning dolzarb muammolarini bartaraf etish;
- gender tenglikdagi ilg'or xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlilini amalga oshirish;

- ta'limning barcha bo'g'inlarida gender tenglikni ta'minlash;
- pedagoglarni gender stereotiplarga va ularning salbiy ta'siriga nisbatan sezgirligini oshirish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

#### Kurs hajmi

Malaka oshirish jarayoni 24 soatni tashkil etadi. Nazariy mashg'ulotlar 14 soat, amaliy mashg'ulotlar 8 soat, yakuniy nazorat 2 soatdan iborat.

Malaka oshirish kursini muvaffaqiyatli yakunlagan tinglovchilarga sertifikat beriladi.

### O'QUV KURSI BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	O'quv yuklamasi, soatlar taqsimoti		Amaliy mashg'ulot
		Hammasi	Nazariy	
1.	Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish	4	2	2
2.	O'zbekistonda gender strategiyasining normativ-huquqiy asoslari tahlili	6	4	2
3.	Gender va gender tenglik masalalari	6	4	2
4.	O'quv jarayonida gender-defferensiyalangan xulq-atvorning ta'sirini hisobga olish	6	4	2
5.	Yakuniy nazorat	2		
<b>JAMI</b>		<b>24</b>	<b>14</b>	<b>8</b>

### NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

#### 1-mavzu: Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish

Tazyiq va zo'rvonlik tushunchalari. Zo'rvonlik turlari. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilishning huquqiy asoslari. Xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlik sodir etilishiga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlar. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldini olish hamda himoya qilish mexanizmlari.

#### 2-mavzu: O'zbekistonda gender strategiyasining normativ-huquqiy asoslari tahlili

O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va